



MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
NUKUS FILIALI



«XALQ XO'JALIGI SOHASIDA ILG'OR TEXNOLOGIYALAR TADBIQI MUAMMOLARI»

MAVZUSIDAGI HUDUDIIY ILMIIY-TEXNIK KONFERENSIYASI

MA'RUZALAR TO'PLAMI



Chorvachilikda ilg'or texnologiyalar
va innovatsion yechimlar



Dasturlash, kiber xavfsizlik va qishloq
xo'jaligi fan sohalari integratsiyasi



Ta'lim va ishlab chiqarishda innovatsiyalar,
tahlil va prognozlash vositalari



27-dekabr 2023 yil

Konferensiya IL-392103072-
"Chorvachilik komplekslarini
elektron boshqarishning mobil
ilovasini yaratish" innovatsion
loyiha doirasida olib borilgan
ilmiy-amaliy tadqiqotlar
natijalariga bagishlangan



Nukus sh. A.Dosnazarov k. 74 uy



(61) 222-49-10



www.uzplf.uz



www.tatunf.uz

<i>B.S.Raximov, A.D.Xo'janiyazov, Z.B.Saidova</i> Tibbiy texnologiyalarning samaradorligini oshirish usullar va diagnostika vositalari	238
<i>B.S.Raximov, A.D.Xo'janiyazov, Z.B.Saidova</i> Tibbiyotda signallariga raqamli ishlov berish usullari	242
<i>Б.А.Файзуллаев, А.Я.Байназаров, Г.Б.Кипшақбаева</i> Классификация неопределенности по различными характеристиками	245
<i>Sh.Rustamov, D.Jo'rayeva</i> Ilmiy texnik axborotlar foydalanuvchilari va foydalanish maqsadlari tahlili	247
<i>Z.N.Ibragimova</i> Bo'lajak pedagoglarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish	250
<i>A.A.Rashidov</i> Bo'lajak o'qituvchilarni dars mashg'ulotlarini tashkillashtirishda loyihalash kompetentligini rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlari	253
<i>D.X.Axmadjonova, J.X.Homidjonov, J.R.Homidjonov</i> Matematika o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari va cheklovlari	255
<i>F.F.Ollamberganov</i> Videokuzatuv kameralardagi harakatlanuvchi obyektlarni aniqlash usullari	258
<i>A.Kalbaev</i> Ma'g'lumatlardin intelektual analizi tiykarinda medicinaliq diaqnoz qo'yiw maseleleri	261
<i>M.H.Xoliqnazarov, N.Y.Mo'sajonova</i> Она тили фанида ёзма нутқни ривожлантиришда акт воситаларидан фойдаланиш	266
<i>N.Sabitova</i> Tibbiy tasvirlarni tahlil qilishda su'niy intellektning qo'llanishi	269
<i>L.Raximova, N.G'anijonova</i> Dasturiy ta'minot loyihalarini boshqarish usul va vositalari.	273
<i>O.A.Asrorov</i> Talabalarga fanlarni o'qitishda axborot xavfsizligini ta'minlash.	276
<i>A.Qahramonov, U.Sharopov</i> Ta'lim jarayonida srim prognozlash metodikasidan foydalanish	279
<i>A.A.Sa'dullayev</i> axborot xavfsizligining ta'limdagi o'rni	282
<i>A.A.Sa'dullayev</i> Virtual texnologiyalarni ta'lim jarayonida tadbiq etish	284
<i>J.T.Sunatov</i> Ishlab chiqarishga innovatsion texnologiyalarni joriy etish samaradorligi	287
<i>J.T.Sunatov, R.T.Rustamov</i> Ta'limda innovatsion texnologiyalar	291
<i>N.M.Ustamova</i> Bo'lajak pedagoglarning kreativ sifatlarini rivojlantirish	293
<i>N.O'Sulaymonova</i> Pedagogik oliy ta'lim muassasalari talabalarining pedagogik kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	295
<i>O.A.Sattarova</i> Kichik energiyali ionlarning qattiq jism sirtidan sochilish jarayonini o'rganish	299
<i>B.J.Mamanazarov, M.O. Meyliqulov</i> Virtual o'quv muhitida talabalarining o'zlashtirish natijadorligi	303
<i>Z.A.Abdukarimov</i> Computer linguistics in development stages	307
РЕФЕРАТИВ ҲИСОБОТ	312

- Использование более точных методов измерения. Ошибка измерения может быть уменьшена посредством использования более точных методов измерения, избегая упрощения предположений, и обеспечивая соответствующее использование и калибровку технологий измерения.
- Сбор большего количества данных измерений. Неопределенность, связанная с ошибкой случайной выборки может быть сокращена посредством увеличения объема выборки. Как отклонение, так и случайная ошибка могут быть сокращены путем заполнения пробелов в данных. Это касается и измерений и обследований.
- Исключение известного риска отклонения. Достигается обеспечением должной установки и калибровки аппаратуры, тем, что модели или другие процедуры оценки являются подходящими и репрезентативными, как указано в схемах принятия решений и других рекомендациях по методологическому выбору в секторальных томах, а также систематическим применением экспертных оценок.
- Улучшение состояния знаний. Как правило, улучшение понимания категорий и процессов, ведущих к выбросам и поглощениям, может помочь в обнаружении и корректировке проблем неполноты.

Использованная литература

1. Abdel-Aziz, A., and Frey, H.C. (2003). ‘Development of Hourly Probabilistic Utility NOx Emission Inventories Using Time Series Techniques: Part I- Univariate Approach’, Atmospheric Environment, 37:5379-5389 (2003).
2. Frey, H.C. (2005), “Comparison of Approach 1 and Approach 2,” January 2005, unpublished analysis done for this Chapter.
3. Mokhtari, A., Frey H.C. and Zheng J. (2006). “Evaluation and recommendation of sensitivity analysis methods for application to Stochastic Human Exposure and Dose Simulation (SHEDS) models,” Journal of Exposure Assessment and Environmental Epidemiology, Accepted December 2, 2005, In press.

ILMIY TEXNIK AXBOROTLAR FOYDALANUVCHILARI VA FOYDALANISH MAQSADLARI TAHLILI

Sh.Rustamov (TATU Qarshi filiali),

D.Jo‘rayeva (TATU Qarshi filiali 2-bosqich magistranti)

Annotatsiya. Ma’lumki, ilmiy-texnik axborotlar tadqiqot ishlarini olib borishda muhim axborot ta’minoti vazifasini o‘taydi. Shunga qaramasdan foydalanuvchilarda ilmiy axborotlardan foydalanishda turlicha axborot ehtiyojlari va maqsadlari mavjud. Ushbu maqolada fanning turli sohalarida ilmiy-tadqiqot

ishlari bajarilishi natijasida ilmiy-texnik axborotlardan foydalanish maqsadi yaratilgan.

Kalit soʻzlar: ilmiy-texnik axborot manbalari, tavsiya etish tizimlari, axborotdan foydalanish maqsadlari, axborot ehtiyojlari.

Har qanday ilmiy tadqiqot oʻtkazilishi moʻljallanayotgan yoʻnalishga bagʻishlangan ilmiy texnikaviy axborotlarini axborotlarni izlashdan boshlanadi. Ilmiy texnikaviy axborot manbai boʻlib quyidagi hujjatlar hisoblanadi:

- kitoblar (darsliklar, oʻquv qoʻllanmalar, monografiyalar, broshyuralar);
- davriy matbuot (jurnallar, byulletenlar, institutlarning ishlari, ilmiy toʻplamlar);
- meʼyoriy hujjatlar (standartlar, texnikaviy shartlar, yoʻriqnomalar, jadvallar, muvaffaqiyat koʻrsatmalar va b.);
- katalog va preyskurantlar;
- patent hujjatlari;
- ilmiy tadqiqotlar va tajribaviy konstruktorlik ishlari haqidagi hisobotlar;
- xorijiy ilmiy-texnikaviy adabiyotlar tarjima va asl nusxalari;
- dissertatsiyalar, muallif referatlar;
- ilmiy-texnikaviy konferentsiyalar va ishlab chiqarish yigʻilishlarining ilmiy-texnikaviy materiallari;
- ikkilamchi hujjatlar (referativ sharhlar, bibliografik katalog, referativjurnallar va b.) [1].

Global axborotlashtirish – zamonaviy jamiyat tendentsiyalaridan biridir, shuning uchun pedagoglar tadqiqotlari predmetiga aylangan muammolardan biri oʻquvchilarning kerakli axborotni izlash, tanlab olish, tahlil qilish, tashkil etish, tasavvur etish, uni yetkazish; obʼektlar va jarayonlarni, jumladan individual va guruhli insonlar faoliyatini modellashtirish va loyihalashtirish kompleks koʻnikmalarini nazarda tutuvchi oʻquvchilarning axborot kompetentliklarini shakllantirish muammosi hisoblanadi. Bugungi kunda global Internet tarmogʻida arxiv hujjatlari, tarixiy manbalarning koʻpgina elektron nusxalari, jumladan antik davr va oʻrta asrlarning noyob matnlari, arxeologik va etnografik ekspeditsiyalarning materiallari, fotosuratlar va rasmlar kolleksiyalari mavjud. Tarixiy ixtisoslikdagi elektron jurnallar mavjud, koʻpgina tadqiqotchilik maqolalari va kitoblardan foydalanish imkoniyati taʼminlangan, koʻp sonli virtual davra suhbatlari tashkil etiladi va ularda tarix fanining dolzarb yoʻnalishlari boʻyicha munozaralar olib boriladi. Internet axborotning asosiy manbalaridan biriga aylanmoqda. Ammo ommaviy kommunikatsiya tarmoqlarida axborotning tarqalish mazmuni va yoʻllari deyarli nazorat qilinmasligini taʼkidlash lozim. Shu sababli ham oʻquvchini olingan axborot bilan ishlashga oʻrgatish lozimdir.

Sanab o‘tilgan hujjatlar katta axborot oqimi hosil qiladi, uning sur‘ati yildan yilga oshib boradi. Axborot oqimi bir-birida farqlanadi [2].

Yangi ilmiy va ilmiy-texnikaviy ma‘lumotlar jadal o‘sib borishi munosabati bilan axborot «eskiradi». Uning kirish qonuniyati rasmda keltirilgan. Chet ellik tadqiqotchilarning ma‘lumotlariga ko‘ra, axborot qimmatning pasayish («eskirish») jadalligi taxminan gazetalar uchun bir kunda 10%, bir oyda jurnallar uchun 10% va bir yilda kitoblar uchun 10% ni tashkil etadi. Ilg‘or, muayyan mavzuni masalani hal qilishda ilmiysini topish faqat bitta ilmiy xodim uchungina emas, balki katta jamoa uchun ham ancha murakkabdir [3]

Axborot samarali ishlab chiqilishiga erishish (o‘rganish, yodda saqlab qolish va tahlil) uchun bir qator shartlarga amal qilish kerak. Birinchi shart bo‘lib aniqlash, ya‘ni o‘qishning maqsadini belgilash hisoblanadi. Bu psixologik omil tafakkurni faollashtiradi, o‘rganilayotganni tushunishga yordamlashadi, idroklashni ancha aniqlashtiradi. Mazkur holda ilmiy xodim o‘zini «muayyan to‘lqinga» sozlaydi. U ilmiy yondashishga asoslanadi va axborotni ishlab chiqish samarasini oshiradi. Axborotni sifatli ishlab chiqishni ta‘minlash uchun diqqat va fikrni bir yerga to‘plash zarur. Ishlab chiqish jarayonida turli asab qo‘zg‘atuvchilarni (shovqin, gaplashishlar, xususiy fikrlar va b.) bartaraf etish zarur, chunki bular va tezda toliqishga olib keladi. Axborot ustida muvaffaqiyatli ishlashning muhim omili bo‘lib mehnatning mustaqilligi hisoblanadi.

Xulosa. Ilmiy texnik axborot foydalanuvchilari uchun tavsiya etish tizimlarining ishlab chiqilishi foydalanuvchilar o‘zi uchun ham qator yengilliklarni taqdim etishi mumkin. Ilmiy texnik axborot foydalanuvchilari barcha foydalanuvchilari darajasida axborot ehtiyojlarni tahlil qilish orqali samaradorligi oshirish mumkin. Bundan tashqari foydalanuvchilar o‘zlariga kerak bo‘lgan axborot manbasini aniq bilganligi sababli ilmiy texnik axborot foydalanuvchi ehtiyojidagi manbani izlab topishdagi qiyinchiliklar kamayadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. SCImago Journal & Country Rank аналитик портали маълумоти. <https://www.scimagojr.com/countryrank.php> (мурожаат қилинган сана 02.02.2023)
2. <https://www.google.com/> Ilmiy texnik axborotlar foydalanuvchilari va foydalanish maqsadlari tahlili. Ilmiy texnik axborotlar foydalanuvchilari va foydalanish maqsadlari tahlili.[2]
3. W. X. Zhao, S. Li, Y. He, L. Wang, J.-R. Wen, and X. Li. Exploring demographic information in social media for product recommendation. Knowledge and Information Systems, 49(1):61–89, 2015.

BO‘LAJAK PEDAGOGLARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Z.N.Ibragimova (Shahrisabz Davlat Pedagogika instituti magistranti)

Annotatsiya. Ushbu maqolada insonparvarlik tamoyili asosida bo‘lajak pedagoglarni kasbiy-pedagogik tayyorlash jarayonida kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi ko‘rib chiqiladi va bo‘lajak pedagoglarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishning metodik asoslari alohida yoritilgan. Ularni tayyorlash ta‘lim jarayonining asosiy vazifasi bo‘lib, pedagogning kasbiy va psixologik tayyorgarligining ajralmas qismi bo‘lgan kommunikativ kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirishga yo‘naltirilgan muhim masalalar yoritilgan .

Kalit so‘zlar: ta‘lim, tarbiya, pedagog, kommunikativ, kompetentlik, muloqot, munosabat, madaniyat, yondashuv, ta‘lim oluvchi, o‘zaro ta‘sir.

O‘sib kelayotgan yosh avlodning yetuk inson bo‘lib kamol topishida pedagoglarning o‘rni beqiyosdir. Biz uchun taniqli bo‘lgan rus pedagogi S.Suxomlinskiy shunday deb aytgan “Yaxshi murabbiy bo‘lgan taqdirdagina yaxshi pedagog bo‘lish mumkin. Pedagogning butun pedagogik madaniyati, bilimi tarbiyaviy ishda kor qilmasa befoyda yukka aylanib qoladi.” Pedagogning tajribali mutaxassis sifatidagi kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish yosh avlodni mehnat faoliyatlarida o‘z o‘rnini egallashlariga, sifatli ta‘lim olishlariga yordam berishi kerak, ammo bunday vaziyatda eng muhimi shaxsni talabga to‘la javob beradigan darajada shakllantirish dolzarb muammolardan biridir. Bo‘lajak pedagogning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish pedagoglarni tayyorlashdagi muhim muammolar qatorida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Bo‘lajak pedagoglarni amaliy, metodik, psixologik, tadqiqotchilik turlari bilan bir qatorda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish bilan boyib bormoqda. Shu uchun ham pedagoglarni tayyorlash ta‘lim jarayonining muhim vazifasi bo‘lajak pedagogning kasbiy pedagogik tayyorgarligining ajralmas qismi hisoblangan kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak Bundan tashqari kommunikatsiyani muloqotning tarkibiy qismlaridan biri sifatida belgilash mumkin.

Ma‘lumki, insonparvarlik pedagogikasi pedagogik o‘zaro ta‘sirning eng samarali usulini tan olib, bunda o‘zaro tushunishga erishiladi va muloqot orqali ta‘lim oluvchilar bilan o‘z pozitsiyalarini kelishib oladilar. Rus pedagoglari - A.A.Bodalev, O.I.Danilenko, V.A.Kan-Kalik, A.A.Leontiev, N.V.Kuzmina va N.E.Shchurkovalar o‘z tadqiqotlarida pedagoglarning ta‘lim oluvchilarga nisbatan insonparvarlik pozitsiyasini egallash va o‘zlarining kasbiy vazifalarini to‘g‘ri shakllantirilgan muloqot orqali amalga oshirishga qodir bo‘lgan pedagoglarga bo‘lgan ehtiyoj ularning kelajakda kommunikativ kompetensiyani maqsadli